



Received: October 2, 2025  
Accepted: November 24, 2025  
Available online: November 25, 2025

## Mohira Burxonova

Tayanch doktorant  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### PROFESSIONAL DISKURS VA MAXSUS MAQSADLAR UCHUN TIL: TIBBIY KOMMUNIKATSIYANING LINGVISTIK ASOSLARI

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda professional diskurs hodisasini tahlil qilish, uning turlari, tuzilishi va maxsus maqsadlar uchun til LSP- (language for special purposes) bilan nisbatini aniqlash maqsad qilib olingan bo'lib, bunda asosiy e'tibor tibbiy diskurs misolida professional kommunikatsiyaning lingvistik xususiyatlarini ochib berishga yo'naltirilgan. Ushbu tadqiqotning asosiy vazifalari diskurs atamasining turli ilmiy yondashuvlarda talqinini taqqoslash, professional diskursning konstitutiv va institutsional belgilarini aniqlash, tibbiy diskursning o'ziga xos aksiologik va pragmatik jihatlarini tavsiflash, LSP (language for special purposes) va LGP (language for general purposes) o'rtasidagi farqlarni aniqlash hamda professional muloqotda terminologiyaning rolini baholashdan iborat.

Maqolani tahlil qilish mobaynida deskriptiv metod, komparativ-tipologik yondashuv, diskurs-tahlil va funksional-semantik tadqiqot usullari qo'llanilgan. Xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy konsepsiyalari (Karasik, Beylinson, Pixt, Fuko) ning qarashlariga tayanib, institutsional diskurs tipologiyasi ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotdan olingan asosiy natija professional diskurs keng qamrovli va ko'p qirrali tizim sifatida isbotlandi, MMT (Maxsus Maqsadlar Tili) nafaqat kommunikativ vosita, balki kasbiy qadriyatlar va etik me'yorlarni aks ettiruvchi lingvistik hodisa sifatida belgilandi. Shu bilan bir qatorda terminologik zichlik, semantik aniqlik va pragmatik yo'naltirilganlik tibbiy diskursdagi asosiy xususiyatlar deb

## Mohira Burkhonova

PhD Student  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: makhiraibragimova10@gmail.com  
ORCID iD: 0009-0008-4700-1592

### PROFESSIONAL DISCOURSE AND LANGUAGE FOR SPECIFIC PURPOSES: LINGUISTIC FOUNDATIONS OF MEDICAL COMMUNICATION

#### ABSTRACT

This article aims to analyze the phenomenon of professional discourse in modern linguistics, determine its types, structure, and relationship with LSP, with primary focus directed toward revealing the linguistic features of professional communication using medical discourse as an example. The main objectives of the study include comparing interpretations of the term “discourse” across various scientific approaches, identifying constitutive and institutional features of professional discourse, describing specific axiological and pragmatic aspects of medical discourse, determining differences between LSP and LGP, and evaluating the role of terminology in professional communication.

During the article analysis, descriptive methods, comparative-typological approaches, discourse analysis, and functional-semantic research techniques were employed. Drawing upon theoretical concepts of foreign and local scholars (Karasik, Beilinson, Picht, Foucault), the typology of institutional discourse was examined, which allowed for deeper understanding of professional communication mechanisms in various spheres of activity.

The principal result of the research demonstrated that professional discourse represents a comprehensive and multifaceted system, while language for special purposes serves not merely as a communicative tool but as a linguistic phenomenon reflecting professional values and ethical norms. Terminological density, semantic precision, and pragmatic orientation were identified as fundamental characteristics of

topilib, deontologik tamoyillarning mavjudligi, nutq xulq-atvorining ahamiyati, shuningdek, shifokor va bemor o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonida emotsional komponentlarning tahlili, nutq jarayonidagi o'zaro muammolar atroflicha o'rganildi.

Professional diskursning bir bo'lagi sanalgan tibbiy diskurs nafaqat axborot almashinuvi jarayoni balki murakkab hayot-mamot masalalariga ta'sir ko'rsatuvchi kommunikativ hodisa ekanligi ko'rsatib berildi va o'z navbatida, MMT tizimining o'ziga xos jihatlari kasbiy kompetensiya, mas'uliyat va ijtimoiy-madaniy kontekstda prizmadan o'tkazildi. Tadqiqot davomida interdiskursivlik - zamonaviy professional muloqotning zaruriy xususiyati ekanligi o'z tasdig'ini topdi va sohalararo yangi amaliy tadqiqot ishlarining zaruriyatini ochib berdi.

**Kalit so'zlar:** professional diskurs, tibbiy diskurs, LSP, institutsional kommunikatsiya, terminologiya, diskurs tahlili, deontologik qoidalar, shifokor-bemor muloqoti, pragmatik strategiya, LGP.

medical discourse. The presence of deontological principles, significance of speech behavior, analysis of emotional components in the communication process between physician and patient, as well as mutual challenges in the speech process were thoroughly investigated.

It was demonstrated that medical discourse, as an integral part of professional discourse, constitutes not only an information exchange process but also a communicative phenomenon influencing complex life-and-death matters. Correspondingly, specific aspects of the LSP system were examined through the prism of professional competence, responsibility, and socio-cultural context. During the research, interdiscursivity was confirmed as an essential characteristic of contemporary professional communication, revealing the necessity for new interdisciplinary applied research in this field of linguistics.

**Key words:** professional discourse, medical discourse, LSP, institutional communication, terminology, discourse analysis, deontological principles, doctor-patient communication, pragmatic strategy, LGP.

## KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikning ahamiyatli jihati turli faoliyat turlari, nutqdagi dinamik o'zgarishlar, ularning xususiyatlarini o'rganish bilangina chegaralanib qolmasdan, balki sohalar kesimida atroflicha tahlil qilib inson faoliyatining turli jabhalarida - turfa diskurs sathlarida ishlash va amalda qo'llash prinsiplarini chuqur tahlil qilish va tavsiflashdan ham iboratdir. Mazkur tilshunoslikdagi yo'nalishda hozirgacha o'rganilgan masalalar talaygina bo'lsa ham sohalararo diskursda hali javobini kutayotgan savollar mavjudligini olimlarning bu sohaga bo'lgan qiziqishi va e'tiboridan anglash qiyin emas. Globallashuv jarayonlari, fanlararo aloqalarning kengayishi, professional faoliyat sohalarining murakkablashuvi va ixtisoslashuvi til orqali amalga oshiriladigan kasbiy muloqotning rolini sezilarli darajada oshirmoqda. Bugungi kunda professional diskurs va maxsus maqsadlar uchun til (LSP – Language for Special Purposes) tadqiqotlari alohida tilshunoslik yo'nalishi sifatida shakllanib, nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda [Kazakova, 2013].

Professional kommunikatsiyaning samaradorligi kasbiy bilimlarni egallash, professional kompetensiyalarni shakllantirish, sohalararo hamkorlikni rivojlantirish va mutaxassislar o'rtasidagi axborot almashinuvi ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Shu munosabat bilan professional diskursning lingvistik xususiyatlarini, uning tuzilishi va funksional-semantik jihatlarini chuqur o'rganish zarurati tug'ilmoqda. Tibbiy diskurs professional diskursning eng muhim va o'ziga xos turlaridan biri sifatida alohida tadqiqotni talab etadi. Bu diskursning o'ziga xosligini

bir necha omillar yordamida ajratib ko'rsatishimiz mumkin: tibbiyotda til faqat oddiy kommunikativ vosita bo'libgina qolmay diagnostika, profilaktika va davolash jarayonida muhim tarkibiy qismga kiradi, bunda etik talablar, qonun-qoidalariga amal qilish muhimdir. Tibbiy diskurs murakkab terminologik tizim, deontologik normalar, o'ziga xos pragmatik startegiyalar bilan tavsiflanadi. Tibbiy kommunikatsiya bevosita inson hayoti, uning salomatligi bilan bog'liqligi bois shifokor va bemor o'rtasidagi kommunikativ jarayon shunchaki tibbiy axborot uzatish bilan cheklanmaydi, balki o'zaro ishonch, hamkorlik va hurmat tamoyillariga asoslangan murakkab ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sir sifatida namoyon bo'ladi. Tibbiy diskurs doirasida amalga oshiriladigan samarali kommunikatsiya bemorning kasallik mohiyatini to'g'ri idrok etishi, davolash jarayonida faol ishtirok etishi hamda reabilitatsiya muddatlarining qisqarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shifokorning prosodik xususiyatlari, leksik tanlovi, mulohaza yuritish uslubi va ifodaning aniqlik darajasi bemorning emotsional holatini shakllantirish, shuningdek, tibbiy ko'rsatmalarga rioya qilish motivatsiyasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tibbiy kommunikatsiyaning natijadorligi asosan lingvistik vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi bilan belgilanadi. Shifokor tomonidan noaniq, haddan tashqari murakkab terminologiya ishlatiladigan yoki kognitiv jihatdan yuklanmagan tilda ifodalangan tushuntirishlar bemorda interpretatsion qiyinchiliklar va psixologik diskomfortni keltirib chiqaradi, ayni paytda aniq va moslashtirilgan til kommunikativ jarayonni optimallashtiradi hamda ishonch asosini mustahkamlaydi [Burxonova, 2025].

Professional sohalardagi kommunikatsiya jarayonini yanada takomillashtirish masalalari, uning samadorligini oshirish, tilshunosikdagi o'rnini belgilash, nutq aktining kommunikativ, pragmatik va kognitiv jihatlariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarning oxirgi yillardagi o'sishi fikrimizga isbot bo'la oladi. Tilshunoslikning mazkur yo'nalishga oid ilk ilmiy izlanishlar XIX asrda, guruh jargonlari va shartli-professional tillarning birinchi leksikografik lug'atlari paydo bo'la boshlaganida namoyon bo'ldi [Priyomysheva, 2009; Felde, 2011]. Ushbu maqola "professional diskurs", "maxsus maqsadlar uchun til", "kasbiy jargon" fenomenlarining nisbati, shuningdek, ma'lum bir sohalarga oid tilning mohiyatliy tavsifiga bag'ishlangan. Professional diskursga to'xtalishdan avval diskurs atamasini ko'rib chiqamiz. Diskurs – tilshunoslikda til birliklarining real kommunikativ vaziyatda, ijtimoiy, madaniy, pragmatik va kognitiv omillar bilan bog'liq holda o'rganuvchi tahlil jarayoni hisoblanadi. Soddashtirilgan talqinda esa matn + biror bir kommunikativ vaziyat ya'ni: qanday maqsadda, kim tomonidan va qanday ijtimoiy sharoitda kimga qaratilganligini belgilovchi nutq faoliyati sanaladi. Matn va diskursning farqli jihatlarini tayyor nutq mahsulotining qo'llanilish jarayoni, ijtimoiy-pragmatik funksiyasida bo'lib, kontekst, maqsad, adresat va adresant, interpretatsiya kabi xususiyatlarini o'z ichiga olgan. Nutqning qo'llanilish sohasiga qarab diskurs turlari belgilanadi, masalan, ilmiy; harbiy; tibbiy; siyosiy; ommaviy axborot vositalari (media) diskurslarini sanash mumkin. Aksiologik nuqtayi nazardan esa diskurs jamiyatdagi qadriyatlar, me'yorlar va baholash munosabatlarini prizmadan o'tkazadi. Masalan, tibbiy diskursda "hayot" va "o'lim", "salomatlik" va "kasallik", "yoshlik" va "keksalik", "norma"

va “patologiya”, “bemor tajribasi” va “shifokor bilimi”, “xavf” va “xavfsizlik” kabi aksiologik birliklar qadriyat tushunchalari olamning lisoniy markazida tadqiq etiladi.

O‘z navbatida “diskurs” tushunchasi turli yillarda turli olimar tomonida o‘rganilgan bo‘lib, bu gipotezalarni qisqacha yoritib o‘tamiz. “Diskurs - bu gapiruvchi tomonidan o‘zlashtirilgan nutqdir” [Benvenist, 2009; 296]; “Diskurs - bog‘langan matn - hayotga singdirilgan nutq” [Arutyunova, 1990; 136-137]; “Diskurs - muloqot vaziyatiga singdirilgan matn” [Karasik, 1992; 6]; “Diskurs - insonning kundalik kommunikativ amaliyotining eng muhim shakli” [Alefirenko, 2007; 15]; “Diskurs - matn (yozma, boshqacha aytganda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nodagi matn ham, og‘zaki ham), til muloqoti va o‘zaro ta‘sir kontekstiga singdirilgan” [Susov, 1988; 2]; “Diskurs – bu til faoliyati jarayoni va uning natijasi, ya‘ni matnning birligi” [Kibrik, 2005; 55]; “Text has often been used of a static concept - the product of a process - while discourse has been used to refer to a dynamic notion - the process of text production and text comprehension” [Virtanen, 1990; 453] va boshqalar). Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, fikrlarning kesishmasi tilshunoslikda diskurs nutq faoliyatining jarayonli qismi sifatida, matn esa uning natijasi sifatida ko‘rsatiladi. Bunday talqinda matn va diskurs yagona bir butunning bir-birini to‘ldiruvchi, tashkil etuvchilaridir.

Fransuz tilshunoslik maktabining yetakchi vakili M.Fuko va uning ilmiy yo‘nalishini davom ettirgan strukturalist hamda poststrukturalist tadqiqotchilar – P.Anri, J.Derrida, P.Meldidiye, M.Peshe, P.Serio diskurs tushunchasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kommunikativ jarayon qatnashchilari bilan bog‘lashgan va real muloqot subyektlarini diskurs tahlilining markaziy elementi sifatida belgilaganlar. Zamonaviy lingvistikada diskursning turli jihatlarini tadqiq etish bir necha yo‘nalishlar doirasida amalga oshirilmoqda: pragmalingvistika – kommunikantlarning interaktiv xatti-harakatlari masalalarini qamrab oladi; psixolingvistika – nutq generatsiyasi va qabul qilishning ijtimoiy-psixologik aspektlarini o‘rganadi; stilistik tahlil funksional uslublarning o‘ziga xos belgilarini aniqlash va tavsiflovchi; kognitivlingvistik tadqiqotlar inson ongidagi kommunikativ modellarni ko‘rib chiqadi; sotsiolingvistik yondashuv esa muloqotning ijtimoiy parametrlarini tahlil qiladi. Mazkur yondashuvlarning barchasi bir-birini to‘ldirib, diskursning ko‘p qirrali mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Sohaga chuqurroq kirsak, diskurs ostida murakkab kognitiv-kommunikativ fenomen tushuniladi ya‘ni, u o‘ziga matn va matniy faoliyat, kommunikatsiyaning ijtimoiy konteksti (muloqot sohasi, muloqot maqsadi, mazmun turi, tipik vaziyat), shuningdek, nutq faoliyati ishtirokchisining o‘zini muloqotning ijtimoiy subyekti sifatida, og‘zaki va yozma nutqda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-psixologik va intellektual xususiyatlarga ega til shaxsini o‘z ichiga oladi. Ilmiy maqsad va tadqiqot metodologiyasiga binoan, diskurs tipologiyasi turli prizmalar orqali ko‘rib chiqilmoqda. Diskurslarni tasniflashda fonetik, grammatik va leksik sathlardagi farqlar asosiy mezon hisoblanadi. Bunda qo‘llanish doiralari (milliy standart til, adabiy til me‘yorlari, dialektlar, ilmiy-texnik til, jargon) muhim parametr sifatida namoyon bo‘ladi. Keyingi muhim tasnif mezonini axborot uzatish kanali - og‘zaki yoki yozma shakl, hamda rasmiylik darajasi (tilning uslubiy va registr

variantlari: rasmiy, neytral, norasmiy, individual) kabi xususiyatlardan iborat. [A grammar of contemporary English, 1991; 277]. E.Golovanova va V.Karasikning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, eng qulay tipologiya diskursni differentsiatsiyalashga asoslangan ya'ni ikki tizim - nutq ishtirokchilari va kommunikatsiya maqsadiga ajratishdir. Diskurs tipologiyasini aniqlashda ushbu yo'nalish hozircha eng maqbuli bo'lib turganligini kuzatishimiz mumkin: "Biz uchun eng qulay tipologiya ikki tizim yaratuvchi mezonlar bo'yicha diskurslarni differentsiatsiyalashga asoslangan: ishtirokchilar va maqsadlar" [Golovanova, 2013 & Karasik, 2000]. "Shartli ravishda diskursning ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: shaxsga yo'naltirilgan va statusga yo'naltirilgan (institutSIONAL). Qayd etamizki, professional diskurs ikkinchisining asosiy shakli va birinchisining xususiy shakli hisoblanadi" [Golovanova, 2011]. O'z navbatida zamonaviy tadqiqotchilar institutsional diskursni turlarga ajratishda Karasik tomonidan belgilangan guruhlariga tayanishadi: 1) konstitutiv belgilar; 2) institutsionallik belgilari; 3) institutsional diskurs turining belgilari, 4) neytral belgilar [Karasik, 2000; 11]. Uning fikricha, konstitutiv belgilar muloqotning usuli, materiali, sohasi, ishtirokchisi, sharoit, maqsadi, janri, hattoki ohang va tana boshqaruvi belgilarini o'z ichiga oladi. Yuqoridagi gipotezadan farqli o'laroq, L.Beylinson konstitutiv belgilar doirasida to'rtta parametr haqida gapiradi: muloqot maqsadi; muloqot holatlari (ijtimoiy institutni aniqlashni, muloqotning rasmiylik darajasi va uning tematikasini o'z ichiga oladi); muloqot ishtirokchilari (agentlar va mijozlar); matnlarning o'ziga xos xususiyatlari (stilistik, funksional xususiyatlar; professional muloqotning semiotik tizimlari, shu jumladan, maxsus maqsadlar uchun tilni funksional-semiotik tizim sifatida, agentlarning ushbu institutga tegishlilikini aks ettiruvchi va bilim tuzilmalarini obyektivlashtiruvchi va boshqalar) [Beylinson, 2001]. InstitutSIONAL belgilar doirasida, V.Karasik ta'kidlaganidek, institutsional kommunikatsiya ishtirokchilarining roli va funksional xususiyatlari, tipik xronotoplar, ramziy harakatlar, qoliplashgan janrlar, nutqiy klishe'lar hamda xulq-atvor stereotiplari qayd etiladi [Karasik, 2000; 12]. InstitutSIONAL diskurs turiga xos belgilar esa uning o'ziga xosligida, ya'ni ijtimoiy institutning asosiy (kalit) konseptida namoyon bo'ladi. Oxirgi 4-belgilar guruhida esa neytral belgilar – "har qanday muloqot uchun xos bo'lgan umumdiskursiv xususiyatlar, shaxsga yo'naltirilgan belgilar, shuningdek "begona hududda" namoyon bo'ladigan boshqa diskurs turlarining belgilari, ya'ni boshqa kontekstga moslashtirilgan belgilar" ni o'z ichiga oladi [Karasik, 2000; 13].

### **TADQIQOT METODLARI**

Mazkur maqolada asosiy metodologik prinsip sifatida sistemali-funksional paradigma qabul qilingan bo'lib, u professional diskursni murakkab, iyerarxik tuzilgan va turli darajadagi komponentlardan tashkil topgan butun sistema sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini diskurs tahlili, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va funksional stilistikaning asosiy tamoyillari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi professional diskurs hodisasini har tomonlama o'rganish imkoniyatini yaratadi. Ushbu maqolaning yoritilish davomida bir necha metodlardan foydalanildi, jumladan, deskriptiv metod



va undagi kuzatish-tasniflash-umumlashtirish bosqichlari orqali prizmadan o'tkazildi. Ushbu metod orqali professional diskurs va tibbiy diskursning xususiyatlari tizimli ko'rib chiqildi. Ikkinchi metod sifatida komparativ-tipologik metod ishlatilib, bevosita qiyosiy-tipologik tahlil orqali diskursning turli ko'rinishlari taqqoslandi: professional diskursni boshqa diskurs turlaridan ajratildi, LSP va LGP tizimlarining xususiyatlari solishtirildi, turli olimlarning nazariyalari o'zaro qiyoslandi. Diskurs-tahlil metodi orqali esa quyidagilar aniqlandi: Strukturaviy tahlilda diskursning tuzilishi, uning tashkil etuvchi elementlari, iyerarxik munosabatlar tadqiq etiladigan bo'lsa, kontekstual tahlilda diskursning ijtimoiy, madaniy va vaziyatli kontekstdagi funksiyalanishi o'rganildi. Strategik tahlil orqali kommunikativ strategiyalar va taktikalar, maqsadga erishish yo'llari tahlil qilindi. Diskurs ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari – interaksional tahlil yordamida o'rganildi. Tadqiqot quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi:

I bosqich - Nazariy asoslarni shakllantirish - diskurs atamasining talqinlari tahlili, professional diskurs kontsepsiyalarini o'rganish, LSP nazariyasining asosiy qoidalarini aniqlash;

II bosqich - Tipologik tadqiqot - diskurs turlarini klassifikatsiyalash, professional diskursning belgilar tizimini aniqlash va institutsional diskurs parametrlarini tavsiflab berish;

III bosqich - Maxsus tahlil - tibbiy diskurs. Tibbiy diskursning spetsifik xususiyatlarini aniqlash, shifokor-bemor muloqoti strategiyalarini tahlil qilish, tibbiy LSPning lingvistik parametrlarini o'rganish;

IV bosqich - Sintez va umumlashtirish – tadqiqotdan olingan natijalarni umumlashtirish va bir butun sistemaga solish, nazariy va amaliy xulosalarni chiqarib, mavjud kamchiliklar va kelajakdagi istiqbolli tadqiqot yo'nalishlarini ajratishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot materiallari sifatida olimlarning sohaga oid fundamental asarlari, tibbiy terminologik lug'at va ensiklopediyalar, tibbiy hujjatlar, shifokor-bemor o'rtasidagi suhbat transkriptlari, protokol, professional jamiyatlarga tegishli rasmiy sayt internet nashrlari. Tadqiqotda qo'llaniladigan metodlar majmui professional diskurs va tibbiy diskursning murakkab, ko'p qirrali tabiatini har tomonlama ochib berishga imkon beradi. Fanlararo yondashuv, klassik va zamonaviy metodlarning uyg'unlashtirilishi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

## **NATIJALAR VA MUNOZARA**

Professional diskursni tavsiflashda birinchi o'ringa maqsadlar va ishtirokchilar kabi konstitutiv belgilar chiqadi. Ishtirokchilarning status-rol guruhlar agentlar (mutaxassislar) va mijozlarni o'z ichiga oladi, ular o'z sifatleri va xulq-atvor yo'nalishlari bilan farqlanadi, bu diskursning ochiqlik darajasini, ya'ni muloqotning status va shaxsiy komponentlari o'rtasidagi nisbat o'lchovini belgilaydi. Bundan tashqari, asosiy xronotop, qadriyatlar, strategiyalar, tematika, janrlar va turlari, pretsedent matnlar va diskursiv formulalar kabi belgilarni ham ko'rib chiqish zarur.

Professional diskursning turlari professional sohalarga muvofiq ajratiladi. Bular siyosiy, pedagogik, yuridik, tibbiy va boshqa ko'plab sohalarni o'z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, interdiskursivlik hodisasi keng tarqalgan bo'lib, turli diskurs turlarining murakkab o'zaro ta'sir jarayoni sanaladi. Professional diskurs tuzilmasi haqida gapirganda, Herbert Pixt tomonidan taklif qilingan sxemaga murojaat qilamiz [Pixt, 1985]:

1-jadval

**Professional diskursning xususiyatlari  
(X.Pixt va LSP maktabi bo'yicha)**

Aspekt	Konsepsiya tavsifi
<b>Ta'rif</b>	Professional kommunikatsiyada qo'llaniladigan verbal va noverbal represen-tatsiya shakllarining yig'indisi.
<b>Terminologiyani- ning roli</b>	Terminologiya markaziy element va professional kommunikatsiyaning "tabiiy joyi" hisoblanadi.
<b>LSP vs LGP</b>	Dualizm inkor etiladi: maxsus tillar (LSP) umumiy tilga (LGP) qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki "butun tilning" integral qismi hisoblanadi.
<b>Hilma-xillik</b>	Yagona LSP mavjud emas; ko'plik shaklida "maxsus tillar" ishlatiladi, chunki har bir bilim sohasi o'z o'ziga xosligiga ega.
<b>Madaniy diskurs</b>	Professional kommunikatsiyani o'zining kichik to'plami sifatida o'z ichiga oladi; semiotika va tilshunoslikka (psixo-, sotsio-, kognitiv) tayanadi.
<b>Funksiyalar</b>	Ishtirokchilarning subyektivligini muvofiqlashtirish, ixtisoslashtirilgan bilimlarni uzatish va professional me'yorlarni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu jadvalda ko'rsatilganidek, professional diskursda terminologiyani-ning roli katta va u markaziy nuqta deb qaraladi. Shu bilan birga LSP (*Language for Special Purposes*) va LGP (*Language for General Purposes*) qarama-qarshi emas, balki bir butun tilning integratsiyalashuvi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu nazariya 1970-1980-yillarda ishlab chiqilgan bo'lib, LSP tilshunoslik va terminologiyada mustaqil yo'nalish sifatida kiritila boshlangan va hozirga qadar o'rganilib, takomillashtirilib kelinmoqda. Professional diskursning lingvistik resursini tavsiflar ekan, tadqiqotchilar u yoki bu professional soha vakillari foydalanadigan tilning maxsus shakli haqida bahs olib boradilar. Ushbu tilni tavsiflash uchun lingvistik amaliyotda maxsus maqsadlar uchun tillar (Язык для Специальных Целей) nazariyasi faol ishlab chiqilmoqda, u LSP (language for special purpose) nazariyasi deb ham ataladi. Ushbu yo'nalishda bir qator olimlarning olib borgan tadqiqotlari ahamiyatlidir. Masalan, G.Akimova, M.Solnyshkina, L.Barannikova, S.Massina, E.Golovanova, B.Golovin, K.Kobrin, L.Graudina, E.Shiryaev, S.Grinev-Grinevich, O.Zyablova, V.Korovushkin, I.Kudashev, V.Leychik, Y.Malyuga, L.Manerko, A.Superanskaya, O.Felde, T.Xomutova va boshqalar professional diskurs borasida o'z ishlarini olib borganlar. MMT termini bilan bir qatorda sinonim sifatida kasbiy (professional) til, kasbiy subtil, maxsus til, kasbiy nutq, ba'zan esa kasbiy dialekt yoki hatto kasbiy uslub kabi atamalar ham qo'llaniladi. So'nggi yillarda terminologik xilma-xillik ma'lum darajada bartaraf etilmoqda, biroq MMTning maqomi, chegaralari va tuzilmasi hali to'liq aniqlanmagan.

MMT termini bilan bir qatorda sinonim sifatida professional til, professional

til tizimi, maxsus til, professional nutq, ba'zan esa professional dialekt va hatto professional uslub va boshqa tushunchalar ham qo'llaniladi. Terminologik tafovut so'nggi paytlarda bartaraf etilmoqda, garchi MMTning maqomi, chegaralari va tuzilishi hali to'liq aniqlanmagan. Bugungi kunda mavjud bo'lgan aksariyat ta'riflarda ushbu hodisaning funksional va shartli leksik-semantik mustaqilligi ta'kidlanadi: MMT - bu "rasmiy ham, norasmiy ham muloqot sharoitlarida uning tashuvchilarining cheklangan guruhi tomonidan qo'llaniladigan umumxalq tilidan foydalanishning bir ko'rinishidir" [Barannikova & Massina, 1993; 4]. Shunday qilib, professional diskurs kognitiv tuzilma bo'lib, bir tomondan, kommunikativ vositalarning barcha tizimlarini, shu jumladan MMT va boshqa semiotik tizimlarni, ikkinchi tomondan esa, verbal vositachi professional faoliyatni o'z ichiga oladi. Professional diskursga quyidagi omillar ta'sir qiladi: professional bilimlar, axborot va hujjatlar; til texnologiyalari va til rejalashtiruv; madaniy va ijtimoiy kontekst. Boshqacha aytganda, "diskurs" tushunchasi "til", "leksika", "grammatika" va boshqa tushunchalardan kengroqdir. U "birinchi navbatda va asosan matnlarda mavjud, ammo orqasida maxsus grammatika, maxsus leksikon, so'z ishlatishning maxsus qoidalari va sintaksis, maxsus semantika – oxir oqibatda boshqa lisoniy olamga ega" [Stepanov, 1995; 44]. Professional diskurs tushunchasini kengroq ko'lamda tushunish uchun uning bir bo'lagi – tibbiy diskursni prizmadan o'tkazamiz.

O'tgan asr oxirlaridan boshlab tibbiy diskursning turli jihatlarini tavsiflash muammolariga xorijiy tilshunoslikda ancha katta e'tibor berildi: V.Abramov, L.Alekseyeva, S.Mishlanova, M.Barsukova, L.Beylinson, Y.Burova, N.Goncharenko, V.Jura, V.Karasik, S.Majayeva, Y.Maligina, S.Mils, L.Panova, Y.Sidorova, D.Zimerman, A.Sikurel, S.Fisher, A.Gros, U.Labov, D.Fanshel, R.Vodak singari olimlarning ilmiy qarashlari tibbiy diskursning ahamiyatini ommaga keng ochib berish bilan uning dolzarbligini isbotlab berdi. Tibbiy diskursni ajratib ko'rsatishning muhimligi, uning alohida diskurs sifatida qaralishi biz tahlil qilgan ishlarning birortasida ham shubha ostiga qo'yilmaydi. Tadqiqotchilar uning dinamikligini va ushbu faoliyat sohasining barqaror rivojlanishi, ko'plab yangi tibbiy metodikalar, preparatlar, zamonaviy uskunalarning paydo bo'lishi bilan asoslangan bo'lib, mutaxassislar va ularning mijozlari o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir tizimi mavjudligi uning zaruratini isbotlaydi. Tibbiy diskursning quyidagi muhim xususiyatlarini qayd etish mumkin:

- ijtimoiylikning yuqori darajasi;
- yaxlitlik, integrativlik va kogerentlik (tibbiy diskurs - murakkab, yaxlit, ierarxik tarzda tuzilgan tizim bo'lib, uning elementlari doimiy kompleks o'zaro ta'sir va strukturaviy-mazmuniy bog'lanishda bo'ladi);
- kontekstuallik (tibbiy diskurs ijtimoiy, shaxsan muhim, madaniy va boshqa vaziyatli omillarning murakkab o'zaro ta'siri sharoitida ishlaydi);
- personalizatsiya, dialogiklik, intensionallik va qadriyatga yo'naltirilganlik (tibbiy, asosan dialogik shakldagi o'zaro ta'sir markazida shifokorlar va bemorlar o'zlarining kommunikativ maqsadlari, motiv, xohish, ehtiyojlari, qadriyat yo'nalishlari bilan tavsiflanadi);
- ochiqlik va chegaralanmaganlik bilan belgilanadi.



Tibbiy diskursning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan tadqiqotchilar ushbu soha kommunikativ faoliyatining bir qator ajralib turadigan jihatlarini aniqlagan. Jumladan, ko'pgina tibbiy mutaxassisliklarda sakral komponentlarning namoyon bo'lishi kuzatiladi – bu o'zini Gipokrat qasamida, jarrohlik amaliyotidagi rituallashgan harakatlar tizimida namoyon etadi va kasbiy faoliyatga oliy xizmat ko'rsatish mazmunini beradi. Tibbiy soha o'zining maxsus deontologik normativlari bilan ajralib turadi, xususan, bemorlar ma'lumotlarining konfidensiallik prinsipi qat'iy rioya qilinadi. Tibbiy xodimlarning professional muloqoti o'ziga xos tashkiliy shakllarda – konsiliumlar, maxsus komissiyalar va shunga o'xshash institutlashgan kommunikativ hodisalarda amalga oshiriladi. Kasbiy identifikatsiyaning ramziy tizimi rivojlangan bo'lib, u maxsus kiyim-kechak talablari va tibbiy simvolikada o'z ifodasini topadi. Bundan tashqari, tibbiy soha alohida funksional-semiotik apparatga ega bo'lib, unga mutaxassislarning muloqotni ta'minlovchi maxsus terminologik tizim kiradi. Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga qo'shimcha ravishda, tibbiy dokumentatsiyaning murakkab strukturasi va ularni rasmiylashtirish bo'yicha qat'iy belgilangan qoidalar majmuini ham tibbiy diskursning muhim komponentlari sifatida ko'rsatish zarur [Beylinson, 2001; 15-16; Karasik, 2002; 238-239].

Tibbiy diskursning ko'p qirrali va ko'p darajaliligi uni o'rganishga turli yo'nalishdagi qarashlarni oshirib kelmoqda. Shunday qilib, L.Beylinson o'zining nomzodlik dissertatsiyasida, V.Karasik tomonidan ajratilgan parametrlarga muvofiq, logopedik diskursning (muallif fikricha, tibbiy va pedagogik diskurslar kesishmasida mavjud) sotsiolingvistik tavsifini beradi, uning maqsadi, ishtirokchilari, xronotopi, qadriyatlari, strategiyalari, janrlarini belgilaydi. Bundan tashqari, ishda kommunikantlarning bazaviy intensiyalarini, diskursning janr strategiyalarini va uning ohangini o'z ichiga olgan pragmatik xususiyatlar; barcha til darajalaridagi strukturaviy-semantik xususiyatlar ajratiladi [Beylinson, 2009; 5-6]. Keyinchalik esa tibbiy diskursning “shifokor-bemor” diadasidagi taktika va strategiyalari Akayeva, M.Barsukova, N.Goncharenko, Sidorova va boshqalarning ishlarida ham o'z aksini topdi [Akayeva 2007; Barsukova, 2007; Goncharenko, 2008; Sidorova, 2008].

Qayd etish joizki, tadqiqotimiz mavzusiga asosiy tegishli bo'lgan yuqoridagi tadqiqotlarning asosiy nuqtasi shifokor professional til ishtirokchisi sifatida o'zining kommunikativ xulq-atvorida psixologik, ijtimoiy va axloqiy-etik qoidalarga rioya qilishi zarurligi ilgari surilgan. Shifokorlarning professional majburiyatlari qatoriga bemorlar bilan samarali muloqotni tashkil etish (har bir bemorga yondoshuvni topish, batafsil so'rovnomalar o'tkazish, shikoyatlarni tinglashni o'z ichiga olgan holda), ularga ta'sir ko'rsatish, etik me'yorlarga amal qilgan holda har bir bemorga moslashish kabi xususiyatlar kiradi. Bu esa o'z navbatida tibbiy xodimlarning psixologik holatiga ta'sir qiladi va norasmiy professional muloqotning o'ziga xosligini isbotlaydi. Shu yo'nalishdagi V. Juraning lingvistik emotiologiya yo'nalishida olib borilgan “Shifokor – bemor muloqotining emotsiogenligining og'zaki tibbiy diskursdagi kommunikativ muammolari” nomli ishida bayon etilgan xulosalar ham ahamiyatga molik. Muallif “shifokor-bemor” o'rtasidagi diskursiv hissiyotlarning namoyon bo'lishini ko'rib chiqadi, ma'lum bo'lishicha emotsional dominant aynan bemorning hissiyotlari

sifatida ustunlik qiladi va ko‘p hollarda tushkunlik, xafa bo‘lish, umidsizlik, qo‘rquv, tashvish, uyat, xijolat, qoralash, qarshilik kabi salbiy qarashlar bilan belgilanadi. V.Jura shuningdek, shifokorlarning asosiy verbalizatsiyalangan hissiy ko‘rinishlarini aniqladi, ularga “g‘azab” guruhi hissiyotlari (g‘azablanish, g‘azab), vaziyatga salbiy munosabatni ifodalovchi yo‘naltirilgan hissiyotlar (qoralash, ma‘qullamaslik); hayrat, hayron qolish, ishonmaslik, admirativ baholashga asoslangan hissiyotlar kirdi. Sanab o‘tilgan barcha hissiyotlar ko‘pincha bemorlarning xatti-harakati va boshqa ekstralingvistik omillar tomonidan yuzaga keladi [Jura, 2008]. Salbiy hissiyotlarni verbalizatsiya qiluvchi bemorlar bilan o‘zaro ta‘sir sharoitlarida doimiy kommunikatsiyada bo‘lish, o‘z hissiyotlarini boshqarish va bemor tomonidan provokatsiyalarni ushlab turish shifokorlarning murakkab psixologik holatiga olib keladi [Kazakova, 2013]. Shu muammolarga yechim topish uchun ham tibbiy diskursni keng ko‘lamda tadqiq qilish zarur. Mazkur diskursning asosiy maqsadi odamlar salomatligini saqlash, shu jumladan, kasalliklar yoki o‘lim sabablarini aniqlashni ham o‘z ichiga oladi. Tibbiy kommunikatsiya jarayonida shifokor va bemor o‘rtasida do‘stona sharoitni tashkil etish, kommunikatsiyadagi muammolarni bartaraf etish, etika qoidalariga amal qilish zaruriyati asosiy masala sifatida qolmoqda.

Tibbiy diskurs ishtirokchilarini tavsiflashga o‘tishdan oldin, avvalo, tibbiyotning asosiy axloqiy qadriyatlarini ko‘rib chiqamiz. Ushbu qadriyatlar ostida *Falsafa ensiklopedik lug‘atida* keltirilganidek “moddiy va ma‘naviy hodisalarning ijtimoiy shartli ma‘nolari” ni tushunish mumkin [Pod red. A.A. Ivina; Gardariki, 2006; 1072], ular tibbiyot vakillarining ideal xulq-atvorini belgilaydi. *Katta tibbiy lug‘atga* tayanadigan bo‘lsak tibbiy etika va axloq bilan bog‘liq masalalar bilan maxsus fan tibbiy deontologiya shug‘ullanadi – “(yunon. deon, deontos zarur, kerakli + logos ta‘limot) tibbiy xodimning o‘z professional majburiyatlarini bajarishda xulq-atvor normalarining va tamoyillarining yig‘indisi” [Bol’shoi meditsinskiy slovar’].

Tibbiy diskursning yana bir muhim qadriyati tibbiyot xodimlarning to‘g‘ri tashkillashtirilgan nutq jarayoni sanaladi. Ko‘plab olimlar shifokorlarni “professional kommunikator” rolidagi bo‘lishi zarurligini ta‘kidlaydilar [Krasnobaeva & Mishlanova, 2000; 94] va bu tibbiy diskursning noverbal kontekstida tibbiyotni yuqori darajadagi mas‘uliyatli kommunikatsiya jarayoni ko‘rinishi sifatida belgilaydi [Grando, 1988; Loun, 2001; Mixalskaya, 1996; Rojers, 1984]. Bu jarayonning muhimligi shifokorning bemorlar bilan muloqotdagi kommunikativ xulq-atvoriga bag‘ishlangan lingvistik tadqiqotlarning mavjudligi bilan ham tasdiqlanadi. Shu kontekstda E.Xarchenkoning “Professional muloqotda nutq xulq-atvori modellari” psixolingvistik ishini eslatmaslik mumkin emas [Xarchenko, 2003]. Muallifning asosiy qarashlari quyidagicha: “aynan shu faoliyat sohasida... so‘z o‘ldirishi mumkin va so‘zning o‘zi qutqarishi mumkin” [Xarchenko, 2003; 123]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tibbiy diskursda MMT ya‘ni LSP tibbiy diskursda nafaqat kommunikativ vosita, balki kasbiy qadriyatlar, etik me‘yorlar va pragmatik strategiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab lingvistik hodisa sifatida baholanadi va muayyan kasbiy, ilmiy yoki ijtimoiy faoliyat sohasi doirasida kommunikativ ehtiyojlarni ta‘minlashga xizmat qiluvchi, umumtil (LGP)dan leksik-semantik, sintaktik va

diskursiv xususiyatlari bilan farqlanuvchi til tizimi hisoblanadi. Ilmiy jihatdan LSP quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- terminologik zichlikning yuqoriligi;
- semantik aniqlik va monosemantiklikka intilish;
- nutqning normativ va standartlashgan shaklda bo'lishi;
- kommunikativ maqsadning ustuvorligi (axborot uzatish, ko'rsatma berish, tashxis qo'yish va h.k.).

Tibbiy diskurs doirasida LSP hayot-mamot masalalariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi til tizimi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Aksiologik jihatdan tibbiy LSP: inson hayotini eng oliy qadriyat sifatida belgilab, shifokor mas'uliyatini til orqali mustahkamlaydi, LSP faqat axborot uzatuvchi vosita emas, balki muayyan ijtimoiy-kasbiy qadriyatlarni verbal shaklda ifodalovchi til tizimi hisoblanadi. Pragmatik jihatdan esa tezkorlik, aniqlik va bir ma'nolilikni ta'minlaydi va nutq subyektining aniq kommunikativ maqsadiga bo'ysundirilgan til shakli sifatida namoyon bo'ladi. LSP ning pragmatik xususiyatlari:

- adresant va adresatning kasbiy kompetensiyasi hisobga olinadi;
- nutq aktlari maqsadga yo'naltirilgan (ko'rsatma, ogohlantirish, buyruq, tavsiya);
- redundansiya minimallashtiriladi, ya'ni ortiqcha izohlar yo'q;
- kommunikativ xatolikning oqibatlari yuqori bo'ladi.

Masalan, tibbiy ko'rsatmalarda: "Preparat vena ichiga sekin yuboriladi" bu gap pragmatik jihatdan imperativ va xavfsizlikka yo'naltirilgan nutq aktidir. Uning tibbiy diskursdagi asosiy vazifalari tashxis va davolash jarayonini aniqlashtirish, shifokorlararo professional muloqotni standartlashtirish, xatoliklarni minimallashtirish va kasbiy etikani ifodalashdan iborat. MMT tibbiy diskursda o'zining boy terminologik xususiyati, aniqligi ba bir ma'noligi bilan boshqa professional diskurslardan ajralib turadi. Shu bilan birga u tor kasbiy doirada tushunilsada (shifokor-bemor, shifokor-tibbiy hodimlar, ilmiy hamjamiyat) umumiy til (LGP) da ham professional ma'noni saqlab qoladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tibbiy diskursda til faqat axborot uzatish vositasi emas, balki davolash jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutqning terapevtik funksiyasi, shifokorning verbal xulq-atvori bemor holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa tibbiy kadrlar tayyorlash dasturlariga lingvistik va kommunikativ komponentlarni kiritish zarurligini asoslaydi. LSP tibbiy diskurs doirasida uch asosiy funktsiyani bajaradi. Birinchi funktsiya – epistemologik: maxsus terminologiya orqali murakkab tibbiy bilimlar aniq va bir ma'noli tarzda ifodalanadi. Ikkinchi funktsiya – pragmatik: tezkor, xavfsiz va samarali professional muloqot ta'minlanadi. Uchinchi funktsiya – identifikatsion: professional jamiyat a'zolarining tilni qo'llash shakli orqali guruh ichidagi identifikatsiya amalga oshiriladi. Interdiskursivlik hodisasi ham e'tiborga loyiq. Tibbiy diskurs siyosiy, huquqiy, pedagogik va ilmiy diskurslar bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bu ayniqsa zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida, qonunchilik bazasini shakllantirish, tibbiy ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni olib borishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun tibbiy diskursni yolg'iz holda o'rganish emas, balki boshqa diskurs turlari bilan

o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish maqsadga muvofiq. Aksiologik nuqtayi nazardan tibbiy diskurs jamiyatning sog‘liq va hayotga bo‘lgan munosabatlarini aks ettiradi. Unda inson hayoti eng oliy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, tibbiy etika, bemor huquqlari, shifokor majburiyatlari kabi me‘yorlar LSP orqali verbal shaklda obyektivlashadi. Diskursiv amaliyotda tibbiy sirni saqlash, informed consent tamoyili, paternalistik yoki sheriklik modellarini qo‘llash masalalari til vositalari orqali amalga oshiriladi. Kognitiv aspekt ham muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA

Zamonaviy tilshunoslikda professional diskurs tadqiqoti mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanib, turli fanlararo yondashuvlarni o‘zida mujassam etmoqda. Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, professional diskurs oddiy til birliklari yig‘indisi emas, balki murakkab kognitiv-kommunikativ hodisa bo‘lib, u ijtimoiy, madaniy, pragmatik va psixologik omillarning o‘zaro ta‘sirida vujudga keladi. Tadqiqot davomida diskurs va matn tushunchalarining nisbati aniqlandi. Diskurs nutq faoliyatining dinamik jarayoni sifatida, matn esa uning statik natijasi sifatida qaralishi mumkinligi asoslandi. Professional diskursning asosiy konstitutiv belgilari – ishtirokchilar, maqsadlar, xronotop, strategiyalar va janrlar tizimi – uning boshqa diskurs turlaridan ajralib turishini ta‘minlaydi. Maxsus maqsadlar uchun til nazariyasi doirasida olib borilgan tahlil LSP va LGP o‘rtasidagi fundamental farqlarni aniqlashga imkon berdi. LSP umumiy tildan ajralib turmasdan, balki uning integral qismi sifatida funksiyalashishi, shu bilan birga o‘ziga xos terminologik zichlik, semantik aniqlik va normativlik bilan tavsiflanishi aniqlandi. Herbert Pixtning nazariyasiga ko‘ra, professional kommunikatsiyada terminologiya tabiiy joy egallaydi va diskursning markaziy elementi hisoblanadi. Tibbiy diskurs professional diskursning eng murakkab turlaridan biri ekanligi tasdiqlanadi. Uning o‘ziga xosligi bir necha jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, tibbiy diskurs hayot va o‘lim, salomatlik va kasallik kabi fundamental qadriyatlar atrofida shakllanadi. Ikkinchidan, bu diskurs yuqori mas‘uliyat talablariga javob beradi, chunki kommunikativ xatolikning oqibatlari jiddiy bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, tibbiy diskurs deontologik tamoyillar, etik me‘yorlar va ritual elementlar bilan chambarchas bog‘liq. Shifokor-bemor muloqoti diskursiv jarayonining tahlili shuni ko‘rsatdiki, muvaffaqiyatli tibbiy kommunikatsiya faqat professional bilimlar bilan cheklanmaydi. Shifokor bir vaqtning o‘zida professional kommunikator, psixolog va axloqiy mas‘uliyat ko‘taruvchi shaxs rollarini bajaradi. Bemor tomonidan namoyon etiladigan salbiy emotsiyalar – tashvish, qo‘rquv, umidsizlik, g‘azab – shifokordan yuqori emotsional kompetensiya talab etadi. Shu sababli, tibbiy xodimlarni tayyorlashda nafaqat professional bilimlar, balki kommunikativ ko‘nikmalar va emotsional intellekt rivojlantirishga ham e‘tibor qaratish zarur.

Demak, professional diskurs, xususan, tibbiy diskurs, zamonaviy tilshunoslikning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Uning tadqiqi nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy sohalarida ham muhim hissa qo‘shadi. Tibbiy kommunikatsiya sifatini oshirish, shifokorlarning kommunikativ kompetensiyasini

rivojlantirish va oxir oqibatda bemorlar xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun lingvistik tadqiqotlar davom ettirilishi zarur. Professional diskurs tadqiqotlari fanlararo yondashuv asosida – lingvistika, tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasini birlashtirgan holda – olib borilishi eng samarali natijalar berishini ushbu tadqiqot isbotlab berdi. Aytish mumkinki, ushbu diskursni fanlararo kesishma ostida tadqiq qilish inson salomatligi yo'lida bajarilishi kerak bo'lgan tadqiqot sifatida baholanadi. Sohada mavjud tushunarsiz holatlar, kamchiliklar ustidagi tuzatishlar shifokor-bemor kommunikatsiyasini yaxshilashga yordam beradi. Ular o'rtasidagi emotsional noqulayliklar bartaraf etiladi, ishonchlilik darajasi ortadi. Mutaxassis bo'lmagan va tibbiyotdan bexabar bemorlar uchun terminologiyadagi tafovutlar, ilmiy tilning sodda tilda tushuntirilishi g'oyatda muhim bo'lganligi sababli ham tibbiy diskursning salmoqli o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Tibbiy diskursdagi terminologiya borasidagi tadqiqotlar va loyihalarning istiqboli ham nazardan chetta qolmasligi zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alefirenko, N.F. (2007). *Sovremennye problemy nauki o yazyke: Uchebnoe posobie*. Moscow: Flinta; Nauka.
2. Arutyunova, N.D. (1990). Diskurs. V kn.: V. N. Yartseva (gl. red.), *Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar'* (ss. 136–137). Moscow: Sovetskaya entsiklopediya.
3. Barannikova, L.I., & Matsina, N.G. (1993). Professional'nyy yazyk v funktsional'no-kommunikativnom aspekte. V kn.: *Problemy sotsial'noy lingvistiki* (ss. 3–11). Saratov: Izd-vo Saratovskogo universiteta.
4. Beilinson, L.S. (2001). *Kharakteristiki professional'nogo diskursa (na materiale russkoyazychnogo logopedicheskogo diskursa)* (dis. ... kand. filol. nauk). Volgograd.
5. Beilinson, L.S. (2009). *Professional'nyy diskurs: priznaki, funktsii, normy (na materiale kommunikativnoy praktiki logopedov)* (avtoref. dis. ... dokt. filol. nauk). Volgograd.
6. Benvenist, E. (2009). *Obshchaya lingvistika* (per. s fr.). Moscow: URSS.
7. Blauberg, I.V., & Pantin, I.K. (Eds.). (1982). *Kratkiy slovar' po filosofii* (4-e izd.). Moscow: Politizdat.
8. Bol'shoy meditsinskiy slovar'. (n.d.). Retrieved February 3, 2026, from <http://www.meds.lv.ru>.
9. Burxonova, M.O. (2025). Tibbiy diskursda kommunikativ strategiyalar: shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotdagi muammolar. *The Lingua Spectrum*, 10.
10. Fel'de, O.V. (2011). *Leksikograficheskaya interpretatsiya professionalizmov (na materiale gornorudnoy terminologii)* (avtoref. dis. ... kand. filol. nauk). Barnaul.
11. Golovanova, E.I. (2011). *Vvedenie v kognitivnoe terminovedenie: Uchebnoe posobie*. Moscow: Flinta; Nauka.
12. Golovanova, E.I. (2013). Professional'nyy diskurs, subdiskurs, zhanr professional'noy kommunikatsii: sootnoshenie ponyatiy. *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. Filologiya. Iskusstvovedenie*, 1(292), ss. 32–35.
13. Grando, V. T. (1988). Making do with fewer hands: Posthospital care of the frail elderly. *Journal of Gerontological Nursing*, 14(7), ss. 8–12.
14. Ivin, A. A. (Ed.). (2006). *Filosofiya: Entsiklopedicheskiy slovar'*. Moscow: Gardariki.
15. Karasik, V. I. (1992). Kul'turnye dominanty v yazyke. V kn.: *Yazykovaya lichnost': kul'turnye kontsepty* (ss. 3–16). Volgograd; Arkhangel'sk.
16. Karasik, V. I. (2000). O tipakh diskursa. V kn.: *Yazykovaya lichnost': institutsional'nyy i personal'nyy diskurs* (ss. 5–20). Volgograd: Peremena.
17. Karasik, V. I. (2002). *Yazyk sotsial'nogo statusa*. Moscow: Gnozis.



18. Kazakova, D. V. (2013). *Kategoriya komicheskogo v meditsinskom diskurse* (dis. ... kand. filol. nauk). Krasnoyarsk.
19. Kharchenko, E. V. (2003). *Modeli rechevogo povedeniya v professional'nom obshchenii*. Chelyabinsk: Izd-vo YuUrGU.
20. Kibrik, A. A. (2005). Modus, zhanr i drugie parametry klassifikatsii diskursov. *Voprosy yazykoznaniya*, (2), ss. 3–21.
21. Lown, B. (2001). *The lost art of healing: Practicing compassion in medicine*. New York: Ballantine Books.
22. Mikhal'skaya, A. K. (1996). *Russkiy Sokrat: Lektsii po sravnitel'no-istoricheskoy ritorike*. Moscow: Academia.
23. Picht, H., & Draskau, J. (1985). *Terminology: An introduction*. Guildford: University of Surrey.
24. Priyemysheva, M. N. (2009). *Taynye i uslovnye yazyki v Rossii XIX veka* (Ch. 1). Saint Petersburg: Nestor-Istoriya.
25. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1991). *A grammar of contemporary English*. London: Longman.
26. Rogers, C. R. (1984). *Freedom to learn for the 80s*. Columbus, OH: Charles E. Merrill Publishing Company.
27. Stepanov, Yu. S. (1995). Al'ternativnyy mir, diskurs, fakt i printsip prichinnosti. V kn.: *Yazyk i nauka kontsa 20 veka* (ss. 35–73). Moscow: Institut yazykoznaniya RAN.
28. Susov, I. P. (1988). Deyatel'nost', soznanie, diskurs i yazykovaya sistema. V kn.: *Yazykovoe obshchenie i ego edinitsey* (ss. 7–13). Kalinin: KGU.
29. Virtanen, T. (1990). Text and discourse in translation theory. V kn.: M. A. K. Halliday & R. Fawcett (eds.), *New developments in systemic linguistics* (Vol. 1, ss. 452–467). London: Pinter Publishers.
30. Zhura, V. V. (2008). *Diskursivnaya kompetentsiya vracha v ustnom meditsinskom obshchenii* (avtoref. dis. ... dokt. filol. nauk). Volgograd.
31. Zhura, V. V. (2008). Emotsiennost' meditsinskogo diskursa (na materiale obshcheniya vracha i patsienta). *Izvestiya Volgogradskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta*, 1(25), ss. 4–7.

## REFERENCES

1. Alefirenko, N. F. (2007). *Contemporary problems of language science: A textbook*. Moscow: Flinta; Nauka.
2. Arutyunova, N. D. (1990). Discourse. In V. N. Yartseva (Ed.), *Linguistic encyclopedic dictionary* (pp. 136–137). Moscow: Sovetskaya entsiklopediya.
3. Barannikova, L. I., & Matsina, N. G. (1993). Professional language in the functional-communicative aspect. In *Problems of social linguistics* (pp. 3–11). Saratov: Saratov University Press.
4. Beilinson, L. S. (2001). *Characteristics of professional discourse (based on Russian-language speech therapy discourse)* (Candidate dissertation). Volgograd.
5. Beilinson, L. S. (2009). *Professional discourse: Features, functions, norms (based on speech therapy communication practice)* (Doctoral dissertation abstract). Volgograd.
6. Benveniste, E. (2009). *General linguistics* (Trans. from French). Moscow: URSS.
7. Big medical dictionary. (n.d.). Retrieved February 3, 2026, from <http://www.medsrv.ru>.
8. Blauberg, I. V., & Pantin, I. K. (Eds.). (1982). *Concise dictionary of philosophy* (4th ed.). Moscow: Politizdat.
9. Burxonova, M. O. (2025). Communicative strategies in medical discourse: Problems in doctor–patient interaction. *The Lingua Spectrum*, 10.
10. Fel'de, O. V. (2011). *Lexicographic interpretation of professionalisms (based on mining terminology)* (Candidate dissertation abstract). Barnaul.
11. Golovanova, E. I. (2011). *Introduction to cognitive terminology studies: A textbook*.

- Moscow: Flinta; Nauka.
12. Golovanova, E. I. (2013). Professional discourse, subdiscourse, and genre of professional communication: Correlation of concepts. *Vestnik Chelyabinsk State University. Philology. Art Studies*, 1(292), 32–35.
  13. Grando, V. T. (1988). Making do with fewer hands: Posthospital care of the frail elderly. *Journal of Gerontological Nursing*, 14(7), 8–12.
  14. Ivin, A. A. (Ed.). (2006). *Philosophy: Encyclopedic dictionary*. Moscow: Gardariki.
  15. Karasik, V. I. (1992). Cultural dominants in language. In *Language personality: Cultural concepts* (pp. 3–16). Volgograd; Arkhangelsk.
  16. Karasik, V. I. (2000). On the types of discourse. In *Language personality: Institutional and personal discourse* (pp. 5–20). Volgograd: Peremena.
  17. Karasik, V. I. (2002). *The language of social status*. Moscow: Gnozis.
  18. Kazakova, D. V. (2013). *The category of the comic in medical discourse* (Candidate of Philological Sciences dissertation). Krasnoyarsk.
  19. Kharchenko, E. V. (2003). *Models of speech behavior in professional communication*. Chelyabinsk: South Ural State University Press.
  20. Kibrik, A. A. (2005). Modus, genre, and other parameters of discourse classification. *Voprosy Yazykoznaniiya*, (2), 3–21.
  21. Lown, B. (2001). *The lost art of healing: Practicing compassion in medicine*. New York, NY: Ballantine Books.
  22. Mikhalskaya, A. K. (1996). *The Russian Socrates: Lectures on comparative-historical rhetoric*. Moscow: Academia.
  23. Picht, H., & Draskau, J. (1985). *Terminology: An introduction*. Guildford: University of Surrey.
  24. Priyemysheva, M. N. (2009). *Secret and conventional languages in nineteenth-century Russia* (Part 1). Saint Petersburg: Nestor-Istoriya.
  25. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1991). *A grammar of contemporary English*. London: Longman.
  26. Rogers, C. R. (1984). *Freedom to learn for the 80s*. Columbus, OH: Charles E. Merrill Publishing Company.
  27. Stepanov, Yu. S. (1995). Alternative world, discourse, fact, and the principle of causality. In *Language and science at the end of the twentieth century* (pp. 35–73). Moscow: Institute of Linguistics, Russian Academy of Sciences.
  28. Susov, I. P. (1988). Activity, consciousness, discourse, and the language system. In *Language communication and its units* (pp. 7–13). Kalinin: KGU.
  29. Virtanen, T. (1990). Text and discourse in translation theory. In M. A. K. Halliday & R. Fawcett (Eds.), *New developments in systemic linguistics* (Vol. 1, pp. 452–467). London: Pinter Publishers.
  30. Zhura, V. V. (2008). *Doctor's discursive competence in oral medical communication* (Doctoral dissertation abstract). Volgograd.
  31. Zhura, V. V. (2008). Emotionality of medical discourse (based on doctor–patient communication). *Proceedings of Volgograd State Pedagogical University*, 1(25), 4–7.